Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensiyalari” mavzusidagi respublika il...

10) yerlarni a’zlashtirish, meliorativ holatini yaxshilash, tabiatni muhofaza qilish va epizootiyaga qarshi kurashish ba’yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

Quyidagi xarajatlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Qoraqalpog‘iston Respublikasi byudjeti va mahalliy byudjetlar hisobidan moliyalashtiriladi:

1) fan, ta’lim, madaniyat, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar byudjetlaridan moliyalashtiriladigan byudjet tashkilotlari bo‘yicha);

2) ijtimoiy ta'minot;

3) aholini ijtimoiy himoya qilish;

4) Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta’minlash;

5) Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrining iqtisodiyotning turli tarmoqlari byudjet tashkilotlarini ta’minlash;

6) huquqiy hujjatlarga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va chora-tadbirlarini amalga oshirish;

7) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Adabiyotlar:

1.Vahobov A. va boshqalar. Budjet - soliq siyosati yaxlitligi. O’quv qa’llanma. - T.: Iqtisod va moliya. 2005.285 b. Malikov T., Xaydarov N. Davlat budjeti. O’quv qa’llanma, T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007, 84 b.

2.Malikov T., Xaydarov N. Budjet daromadlari va xarajatlari. O’quv qa’llanma, T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2007, 245 b.

TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISH MANBALARI TASNIFI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g‘li
TDIU katta o‘qtuvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tadbirkorni moliyalashtirish manbalari tasnifi va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishda qator xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning izlanishlari tadqiq etilgan. Tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari tasnifi aks ettirilgan va taqsimlanmagan foyda, imtiyozli aksiyalar hamda lizing orqali tadbirkorlikni moliyalashtirishning afzalliklari hamda kamchiliklari atroflicha bayon etilgan. Olib borilgan tadqiqotlar asosida tegishli xulosalar va tavsiyalar shakllantirilgan.*

Tayanch so‘zlar: *tadbirkorlik, tadbirkorlikni moliyalashtirish, moliyalashtirish manbalari, taqsimlanmagan foyda, oddiy aksiya, imtiyozli aksiya, lizing, kredit.*

Аннотация. *В данной статье изучены исследования ряда зарубежных и отечественных исследователей в изучении классификации источников финансирования бизнеса и их особенностей. Отражена классификация источников финансирования бизнеса и подробно описаны преимущества и недостатки финансирования бизнеса за счет нераспределенной прибыли,*

Published: 17.05.2024

Cite this article: Ortiqov Ulug‘bek Akrombek o‘g‘li (2024). Tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari tasnifi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari. Emro Science and Education, 1(3). https://journal.emro.uz/public/maqola/83

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

привилегированных акций и лизинга. На основании проведенного исследования формируются соответствующие выводы и рекомендации.

Ключевые слова: *бизнес, финансирование бизнеса, источники финансирования, нераспределенная прибыль, обыкновенные акции, привилегированные акции, лизинг, кредит.*


Abstract. *In this article, the researches of a number of foreign and domestic researchers have been studied in the study of the classification of business financing sources and their features. The classification of business financing sources is reflected and the advantages and disadvantages of business financing through retained earnings, preferred stocks and leasing are described in detail. Relevant conclusions and recommendations are formed based on the conducted research.*

Keywords: *business, business financing, sources of financing, retained earnings, common stock, preferred stock, leasing, loan.*

Kirish. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar amaliyotiga e’tibor qaratilsa, iqtisodiyotni rivojlantirishdagi asosiy ishtirokchilar sifatida korporativ sektor vakillari namoyon bo‘ladi. Shu sababli so‘nggi o‘n yilliklarda biznesni rivojlantirish va uni samarali moliyalashtirish masalalari bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar va izlanishlar natijasi o‘laroq, bugungi kunda xalqaro amaliyotda tadbirkorlikni moliyalashtirishning ko‘plab turlari yuzaga kelgan. Kompaniya o‘zining daromadliligi, mamlakatda fond bozorining holati, moliyaviy va investitsion infratuzilmaning imkoniyatlari, moliyalashtirish manbalaridan jalb qilinadigan kapital bahosi va ularning xususiyatlari kabilardan kelib chiqqan holda moliyalashtirish manbayini tanlashi mumkin.

Milliy amaliyotda, afsuski, tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari keng tarqalmagan hamda mavjud moliyalashtirish manbalaridan foydalanish imkoniyatlari to‘liq foydalanilmaydi. Jumladan, milliy amaliyotda tadbirkorlikni moliyalashtirishda, odatda, bank kreditlaridan foydalaniladi, biroq fond bozori va boshqa kredit institutlaridan kapital jalb qilish holatlari kam uchrashini ta’kidlash lozim. Tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari va usullarining xususiyatlari hamda imkoniyatlari turlicha ekanligini inobatga olgan holda ularning har birini alohida tadqiq qilish hamda milliy amaliyot uchun mosini qo‘llash maqsadga muvofiq. Shu boisdan tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari tasnifi hamda ularning o‘ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish dolzarblik kasb etadi.


Tahlil va natijalar. Tadbirkrlikoni moliyalashtirish manbalari bir qator xususiyatlariga ko‘ra tasniflanadi. Tasniflanishda tadbirkorlikni moliyalashtirish kompaniyaning o‘z mablag‘lari yoki qarz mablag‘lari hisobiga amalga oshirilishi, amal qilish muddati yoki egaligi kabi xususiyatlar inobatga olinadi (1-rasm). Tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari amal qilish muddatiga ko‘ra uzoq muddatli, o‘rta muddatli va qisqa muddatli moliyalashtirish manbalariga bo‘linadi. Tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari egaligi bo‘yicha esa aksiyadorlik kapitali va qarz kapitaliga ajratiladi. Shakllanish manbayiga ko‘ra, tadbirkorlikni moliyalashtirish ichki va tashqi manbalarga bo‘linadi.



1-rasm. Tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari tasnifi

Yuqorida ta’kidlangan tasniflanishda tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari turlicha guruhlarga ajratilgan bo‘lsa-da, tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalarining umumiy tasnifiga sof foyda, oddiy va imtiyozli aksiyalar, bank kreditlari, turli moliyaviy institutlardan jalb qilingan mablag‘lar, lizing, tijorat qog‘ozi, faktoring kabilar kiradi.

Biznesni taqsimlanmagan foyda hisobidan moliyalashtirish amaliyotlari keng uchraydi va buning bir qator afzalliklari hamda kamchiliklari mavjud (2-rasm).



2-rasm. Tadbirkorlikni moliyalashtirishda taqsimlanmagan foydaning afzalliklari va kamchiliklari

Xususan, taqsimlanmagan foyda kompaniya uchun mavjud bo‘lgan doimiy mablag‘ manbayi hisoblanadi. Taqsimlanmagan foyda foizlar, dividendlar yoki o‘zgaruvchan xarajatlar ko‘rinishidagi aniq xarajatlarni o‘z ichiga olmaydi, shuningdek, mablag‘lar ichki shakllantirilganligi sababli ko‘proq operatsion erkinlik va moslashuvchanlik mavjud hamda biznesning kutilmagan yo‘qotishlarini qoplash imkoniyatini oshiradi. Taqsimlanmagan foyda kompaniya aksiyalari bozor qiymatining oshishiga xizmat qilishi mumkin. Biroq tadbirkorlikni moliyalashtirishda taqsimlanmagan foydadan foydalanishning bir qator kamchiliklari ham mavjud.

Birinchidan, taqsimlanmagan foydani haddan tashqari oshirish aksiyadorlarning noroziligiga olib kelishi mumkin, chunki buning natijasida aksiyadorlar kamroq dividend olishlari mumkin.

Ikkinchidan, taqsimlanmagan foyda noaniq mablag‘ manbayi hisoblanadi, chunki biznesning foydasi o‘zgarib turadi.

Uchinchidan, taqsimlanmagan foyda bilan bog‘liq moliyalashtirish imkoniyati ko‘plab kompaniyalar tomonidan tan olinmaydi (2-rasm).

Xulosa va takliflar. Tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari tasnifi va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish asosida quyidagi xulosalar shakllantirilgan.

Birinchidan, tadbirkorlikni moliyalashtirishda kompaniya o‘zining imkoniyatlari, mavjud moliyalashtirish manbalari va ularning xususiyatlari, shuningdek, kapital bahosini inobatga olishi muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, aniq reja asosida moliyalashtirilmagan kompaniya raqobatchilar va bozor yetakchilari bilan raqobatga kirishishda muammolarga duch keladi. Shu sababli biznes muvaffaqiyatiga erishishda aniq reja asosida moliyalashtirishga alohida e’tibor qaratish lozim.

Uchinchidan, milliy amaliyotda tadbirkorlikni moliyalashtirishda, odatda, bank kreditlaridan foydalaniladi, biroq fond bozori va boshqa kredit institutlaridan kapital jalb qilish holatlari kam uchrashini ta’kidlash lozim. Shu sababli tadbirkorlikni moliyalashtirishmanbalari va usullarining xususiyatlari va imkoniyatlari turlicha ekanligini inobatga olgan holda ularning har birini alohida tadqiq qilish hamda mil-liy amaliyot uchun mosini qo‘llash maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, tadbirkorlikni moliyalashtirishda kompaniyalar istiqbolli loyihalarni amalga oshirishda zarur mablag‘ hajmi hamda daromadliligidan kelib chiqqan holda bir vaqtning o‘zida ichki va tashqi moliyalashtirish manbalaridan foydalanishi kompaniyaning faoliyat samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Richard Harrison, Youwei Li, Samuel A. Vigne, Yuliang Wu. Why do small businesses have difficulty in accessing bank

financing? // International Review of Financial Analysis, Volume 84, November 2022.

https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S1057521922003027

2. Marcin W. Staniewski, Tomasz Szopiński, Katarzyna Awru. Setting up a business and funding sources. // Journal of Business

Research, 69 (2016) 2108-2112.

https://www.researchgate.net/publication/287966741_Setting_up_a_business_and_funding_sources/link/5a039b94aca272b06ca41f54
/download
3. Olusanmi Olamide. Funding your business. // Covenant University, Raising a new Generation of Leaders, 2021.
https://www.researchgate.net/publication/351869954_Funding_your_Business/link/60ae1145a6fdcc647edc34c8/download
4. Caglayan M. & Demir F. Firm productivity, exchange rate movements, sources of finance, and export orientation. World
Development, 54, 2014. 204-219. https://ideas.repec.org/a/eee/wdevel/v54y2014icp204-219.html
5. Sejin Hahn, Sarafat Hossain. Impacts of COVID-19: Funding Business Operations and Adapting Marketing Strategies. //
Umeå School of Business and Economics Master’s Thesis in Business Administration I, 15 Credits, Spring 2021.
6. Elmirzayev S. & Mamatov B. (2022). Акцияларни оммавий жойлаштириш амалиётларини самарали ташкил этиш
масалалари. // Moliya va bank ishi, 8(4), 105-110. Retrieved from https://journal.bfa.uz/index.php/bfaj/article/view/102

DAVLAT IJTIMOIY-IQTISODIY FUNKSIYALARINI BAJARISHDA DAVLAT BUDJETINING AHAMIYATI

Tuychiyev Abduraxmon G‘ofurovich
TDIU, Mutaxassislik kafedrasi dotsenti
Xolmirzayev Doniyorjon
TDIU Andijon Fakulteti SST ta’lim yonalishi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada davlatning o‘z funksiya va vazifalarini bajarishda davlat byudjetining ahamiyati, shuningdek davlat budjetining o’ziga xos xususiyatlari hamda jamiyat ijtimoiy hayotidagi roli haqidagi ma’lumotlar hamda davlatlatning tabiati va faoliyatiga qarab davlat byudjeti mohiyati, uning daromadlari va xarajatlari xususiyati va tarkiblari o’rganilgan.*

Kalit so’zlar: *Davlat budjeti, daromadlar, xarajatlar,iqtisodiy tuzum, iqtisodiy beqarorlik*

Davlat byudjeti — davlatning muayyan vaqt (odatda bir yil) uchun mo‘ljallangan pul daromadlari va xarajatlari majmui. Davlat byudjeti davlat ixtiyoridagi pul fondlarining taqsimlanishini bildirib, u davlat moliyasining bosh bo‘g‘ini hisoblanadi.

Davlat byudjeti tarkiban umumdavlat (yoki markaziy) byudjeti (mamlakat miqyosidagi umumiy daromadlar va xarajatlar yig‘indisi) va mahalliy (munitsipal) byudjet (hududiy tuzilmalar — o‘lka, viloyat, tuman va h.k. doirasidagi pul